

DONO CHOL
(Qoraqalpoq xalq ertagi)

Qadim-qadim zamonlarda, xalqqa zolim zamonlarda, mamlakatni xon so‘rab, qilichdorlari qonsirab bir podshoh o‘tibdi, xalqqa juda zulm yetibdi. Zolimligi shu darajaga yetibdiki, shoh: «Kimda-kim oltmish yoshdan oshgan bo‘lsa - o‘limga mahkum!» degan farmon chiqaribdi. Shunday farmon chiqarilganidan so‘ng shoh jallodlari, «podshoh amri vojib», deb mamlakatdagi barcha qariyalarni bir chekkadan qilichdan o‘tkaza boshlabdi.

Shu yurtda Berik degan yigit bor ekan. U o‘zining aqlli otasini juda yaxshi ko‘rarkan, shuning uchun u otasini bir sandiqqa yashirib qo‘yibdi. Bir kuni zolim shoh: «Xazinatoqqa boraman, u yerdan oltin olib qaytamiz. Shuning uchun tirik jonning bari Xazinatoqqa qarab yo‘lga tushsin, toqqa borib oltin izlasin. Kimda-kim buyruqni bajarmasa — boshi olinsin!» degan navbatdagi farmonini chiqarib, jar soldiribdi. Xazinatoqqa olib boradigan yo‘l qirq kunlik masofa ekan. Yo‘lga tushgan xalq suvsizlikdan qirilib, yo‘l bo‘yi cho‘zilib o‘la boshlabdi. Berik ham otasi yashiringan sandiqni orqalab yo‘lga tushgan ekan, sandiqda yotgan otasi o‘g‘liga:

- O‘g‘lim, hamma sigirlarni bo‘shatib, boshini ozod qo‘yinglar! Sigirlar qayerga borib, yerni hidlab, tuproqni tirmalab to‘xtab qolsa, o‘sha joyni qazinglar, albatta suv chiqadi, — deb o‘rgatibdi.

Yigit xaloyiqqa shu tadbirni maslahat solgan ekan ma’qul tushibdi. Bo‘shangan sigirlar qay yerga borib, yerni timdalashsa, o‘sha joyni qazib suv olaveribdilar. Shunday qilib qolgan-qutgan xalq Xazinatoqqa yetib kelibdi.

Xazinatoqqa kelgan podshoh shu yerda bir ungurni ko‘ribdi. Xon ungurning ichida eng katta oltin koni borligini eshitib, birin-ketin odamlarini yubora boshlabdi. Ungurga kirib ketganlarning birortasi ham omon chiqmay, yo‘q bo‘lib ketaveribdi. Ungurga kirish navbati Berikka kelibdi. U sandiqda yotgan otasidan maslahat so‘rabdi. Otasi:

- Bolam, ungurning ichi qorong‘i, ichida aylanma yo‘llari ko‘p, ichiga kirganlar adashib ketib, sog‘ chiqmayotir. Lekin sen qo‘rqma, mening aytganlarimni bajarsang — omon qaytasan. Sen ungurga qulunli biya minib bor, qulunini ungur og‘ziga bog‘lab qo‘y-da, biyani minib ichkariga haydab ketaver. To oltin koniga yetib borguncha biyaning zor-zor kishnaganiga qaramay qamchilab boraver. Yetib borgach, xurjuningni oltinga to‘ldirasana-da, biyani o‘z erkiga qo‘yib yuborasan. Biya seni qulini bog‘liq turgan joyga omon-eson olib chiqadi, — deb maslahat beribdi.

Berik otasining aytganlarini bajarib, xurjunini to‘ldirib oltin olib chiqibdi. Shuncha odam ichida bitta shu yigitning omon chiqqanidan hayron bo‘lgan podshoh:

- Qani, yigit, nima tilaysan - xazinami, dur-javohirmi, tilagingni ayt, bajaraman,- debdi.

Shunda Berik:

- Podshohim, menga hech qanaqa boylikning keragi yo‘q. Yakka-yagona tilagim shuki — oltmishdan oshgan qariya- kampirlarning hayoti saqlanishini so‘rayman. Siz o‘sha mash‘um farmonni chiqarganingizda, men otamning o‘limiga rozi bo‘lmay uni sandiqqa yashirgan edim. Dono buzrukvorimning aqli-farosati tufayligina yo‘lda odamlar suvsizlik balosidan omon qoldilar. Mana bu xurjun to‘la oltinni ham uning maslahati tufayli sog‘-omon olib chiqdim. Otamning yoshi hozir oltmish beshda, men uni yashirib saqlayapman. Tilagim shuki — oltmish yoshdan oshganlar o‘ldirilsin degan farmonni bekor qilsangiz.

Podshoh, «aytgan tilagingni bajaraman», deb el-yurt oldida va‘da bergani sababli, o‘z farmonini bekor qilishga majbur bo‘libdi. Navqiron yigit dono otasini, mamlakatdagi barcha keksa-yu qariyalarni, kampir-u momolarni shu taxlit o‘limdan saqlab qolgan ekan.

“Bir qalpoq oltin” kitobidan